

Arabcha o'zlashmalarning leksik- semantic tadqiqi

Iskandarova Sharifaxon Madaliyevna
sh.iskandarova@mail.ru
professor, filologiya fanlari doktori (DSc)
Farg'ona davlat universiteti

Amonov Muxtorjon Umarovich
dotsent, (PhD)
Farg'ona davlat universiteti

Axmadaliyeva Odina Solijon qizi, magistrant
Zikiriyayeva Xurshidaxon Toxirjon qizi, magistrant
Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zlashma so'zlar, asosan, arabcha o'zlashmalar haqida mulohazalar yuritiladi. Arabcha o'zlashmalarning semantikasi haqida, semantik o'zgarishlari xususida fikrlar bildiriladi. Jadid adabiyoti namoyondasi bo'lmish Ibrat ijodida uchraydiga ayrim arabcha leksemalar semantik va leksik tomondan tahlilga tortiladi.

Kalit so'zlar: leksik-semantik, o'zlashma so'zlar, jadid adabiyoti, Ibrat, semantic o'zgarish

Lexical-semantic study of Arabic loanwords

Iskandarova Sharifaxon Madaliyevna
sh.iskandarova@mail.ru
Professor, (DSc)
Fergana State University

Amonov Muxtorjon Umarovich
Associate Professor (PhD)
Fergana State University

Akhmadaliyeva Odina Solijon kizi, Master's Student
Zikiriyayeva Khurshidaxon Toxirjon kizi, Master's Student
Fergana State University

Annotation: This article discusses loanwords, mainly Arabic loanwords. Opinions are expressed about the semantics of Arabic loanwords and their semantic changes. Some Arabic lexemes found in the works of Ibrat, a representative of Jadid literature, are analyzed from a semantic and lexical perspective.

Keywords: lexical-semantic, loanwords, Jadid literature, Ibrat, semantic change.

Лексико - семантическое исследование арабских заимствований

Искандарова Шарифахон Мадалиевна
sh.iskandarova@mail.ru
Профессор, доктор филологических наук (DSc)
Ферганский государственный университет

Амонов Мухторжон Умарович

Доцент, (PhD)
Ферганский государственный университет

Ахмадалиева Одина Солижон кизи, магистрант
Зикиряева Хуришдахон Тохиржон кизи, магистрант
Ферганский государственный университет

Аннотация: В данной статье рассматриваются заимствования, в основном арабские. Высказываются мнения о семантике арабских заимствований и их семантических изменениях. С семантической и лексической точки зрения анализируются некоторые арабские лексемы, встречающиеся в произведениях представителя современной литературы Ибрата.

Ключевые слова: лексико-семантические, самореферентные слова, современная литература, Ибрат, семантическое изменение.

Kirish. Dunyodagi barcha tillar o'zga tildan so'zlarni qabul qilish jarayonida kengayadi. Shuning uchun ham dunyoda bironta ham sof til mavjud emas. Amaldagi til ikki xil usulda lug'at tarkibini kengaytiradi. Bulardan birinchisi, o'z qatlam, ya'ni o'z ichki imkoniyatlaridan: masalan, shevalardan so'z olish natijasida kengayishi mumkin. Ikkinchisi esa, tashqi manba hisoblanib, chetdan kirgan so'zlar hisobiga lug'at boyligini oshirishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Xalqaro munosabatlar, iqtisodiy-siyosiy va madaniy aloqalar natijadasida bir tildan ikkinchi tilga so'zlar olinadi va lug'at tarkibiga joylashib, ana shu tilning qonun-qoidalariga moslashadi. Bunday jarayonlarning ahamiyati haqida atriflichа bahs-munozaralar olib borilmoqda. Bunday hodisalar bir necha yuz yillardan beri tilshunoslarning diqqat markazida e'tirof etilmoqda. O'zbek tili taraqqiyotida o'zga millatlarning lisoniy ta'siri, xususan, lug'at qatlamida yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'zbek tiliga tashqi manbalardan, asosan, arabcha, forsha-tojikcha va Ruscha-international so'zlar kirib, o'zlashib qolgan. Professor Fattoh Abdullayevning "Til qanday rivojlanadi?" risolasida ko'rsatilishicha, o'tgan asrning yigirmanchi yillarida tuzilgan bir lug'atdagi so'zlarning 28,6% arabcha, 16,9% tojikcha, 4,7% ruscha-internatsional, 50,3% asli o'zbek so'zlaridan iborat bo'lgan[4].

R.A. Budagov lug'a'viy o'zlashmalarning o'z tildagi shakli bilan so'z qabul qilgan tildagi shakli 8 funksional qiymat bilan munosabatga kirishi haqida fikr bildiradi. Bu fikrni o'zbek tilidagi arabcha so'zlar tabiati ham to'la tasdiqlaydi[1]:

1. Arab tilida konkret ma'noda ishlatiladigan lug'a'viy birlik o'zbek tilida mavhum ma'no bildiradi, sohib-ega, ayyom-kunlar, mavj-to'lqin;

2. Arab tilida jins ma'nosida ishlatiluvchi so'z o'zbek tilida tur ma'nosida qo'llanadi, muarbbo- marmalad, ayol- bola-chaqa, oila;

3. Arab tilida bir ma'noda ishlatilgan so'z o'zbek tilida polisemantik xarakter kasb etadi, masalan, bisot;

4. Arab tilidagi otdan o'zlashgan ba'zi so'zlar o'zbek tilida uslubiy muqobiliga ega bo'lmaydi. Masalan, anhor, anqo, ariza, aruz;

5. Arab tilida noarxaik tavsifdagi lug'a'viy birlik o'zbek tilida arxaiklashgan bo'ladi. Masalan, qozi, firqa, xikmat;

6. Arab tilida lug'a'viy mustaqillikka ega bo'lgan so'z o'zbek tilida lug'a'viy mustaqilligini inkor etadi. Masalan, almisoqdan beri;

7. Arab tilida lug'a'viy birlik ba'zan o'zbek tilida so'z tavsifida bo'ladi. Masalan, lisoniy, lug'a'viy, sifat, fe'l, taqriz;

8. Arab tilida so'z hoida ishlatiluvchi birlik o'zbek tilida so'z birikmasi tarkibida qo'llaniladi. Masalan, nazar solmoq, avf etmoq, xayol surmoq, bahridan o'tmoq.

Arab tilidan soʻz oʻzlashtirish VIII asrdan boshlab, IX-X asrlargacha faollashgan. Arab tilidan soʻz oʻzlashtirilishiga olib kelgan sabablar ichida quyidagilari muhim ahamiyat kasb etadi:

- a) Arablar istilosi;
- b) Islom dinining keng tarqalishi;
- c) Arab yozuvining qoʻllanila boshlanganligi;
- d) Madrasalarda arab tilining oʻqitilishi;
- e) Turkiy arab tilining tarkib topganligi;
- f) Olimlarning arab tilida ijod qilganligi[1] .

Arab tilidan soʻz oʻzlashish jarayonida soʻzlar semasi turlicha oʻzgarishlarga uchragan . Masalan arab tilida zamir ضمير soʻzi vijdon, aql, niyat, oʻy, xayol, fikr kabi maʼnolarni anglatadi, shuningdek, arab tili grammatikasida ushbu soʻz olmosh maʼnosini ham anglatadi, oʻzbek tilining izohli lugʻatida esa tub mohiyat, maʼno, magʻiz maʼnolarini anglatishi, eskirgan soʻz sifatida olmosh maʼnosida ham qoʻllangani koʻrsatib oʻtilgan.

Zamzama soʻzi arab tilida mingʻillash, gʻoʻldirash, toʻngʻillash, guldirash, qaldirash maʼnolarini anglatadi, oʻzbek tiliga oʻzlashganda musiqiy asarning kirish qismi, sekin ovoz bilan boshlangan qoʻshiq, xirgoʻyi, imo, ishora, shama maʼnolarini anglatadi[2]:

Zebo pari yengil xalq qoʻshiqlarini zamzama qilar edi...

Bisot soʻzi arab tilida gilam maʼnosini anglatadi, oʻzbek tiliga oʻzlashganda shaxsning, koʻpincha xotinalarning oʻziga tegishli boʻlgan, toʻplab qoʻygan mol-dunyosi, kimsada bor boʻlgan har qanday narsa maʼnolarini anglatadi:

Haykal soʻzi arab tilida juda katta, ulkan; ibodatxona, ulkan bino maʼnolarini anglatadi, oʻzbek tiliga oʻzlashganda esa, kishi yoki hayvon gavdasining gips, tosh, metall, yogʻoch va shu kabi qattiq materiallardan yoʻnib, oʻyib yasalgan tasviriga nisbatan qoʻllaniladi.

Fitna suzi arab tilida maftun etish, yuldan ozdirish; isyon, gʻalayon maʼnolarini anglatadi, oʻzbek tiliga oʻzlashganda gʻarazli maqsadga erishish yulida birovni qoralash uchun qilinadigan yashirin xatti-harakat maʼnosini anglatadi.

Almisoq suzi arab tilida ahd, kasam; shartnoma, bitim maʼnolarini anglatadi, oʻzbek tiliga oʻzlashganda maʼnosi biroz oʻzgargan. Hozirgi oʻzbek tilida qadim zamondan qolgan, juda eski maʼnolarida qoʻllaniladi. Misol uchun almisoqdan qolgan narsa—eski, juda qadimdan qolgan buyum

Hasham soʻzi arab tilida hurmat, ehtirom, xizmatkorlar, navkarlar maʼnosini anglatadi, oʻzbek tiliga oʻtib oʻzlashganda bezash uchun ishlatiladigan narsa, buyum, bezak maʼnolarini anglatadi[2].

Arab tilidan oʻzlashgan farrosh soʻzining oʻzagi farasha, yaʼni yoymoq, degan maʼnoni anglatadi. Qadimda farrosh soʻzi podshoxlar saroyida gilam yoyuvchilarga nisbatan qoʻllanilgan boʻlsa, vaqtlar oʻtishi bilan bu tushuncha oʻzgarib borgan va hozirgi kunga kelib biz koʻcha-koʻyda hovli, bogʻlarni supurib yuruvchi, idora va muassasalarda xonalarni tozalovchi xodimlarga nisbatan farrosh soʻzini qoʻllaymiz.

Maxluq soʻzi arab tilida yaratilgan narsa maʼnosini bildirsa, oʻzbek tiliga oʻzlashish jarayonida oʻxshovsiz, jirkanch, xunuk jonivorga nisbatli haqoratni ifodalash semasi kuchaygan.

Fuqaro soʻzi arab tilida faqir soʻzining koʻpligi hisoblanib, yaʼni faqirlar maʼnosini bildirsa , oʻzbek tiliga oʻzlashganda biror mamlakatning doimiy (muayyan yuridik huquqlarga ega boʻlgan) aholisi sifatida oʻzlashgan, masalan Rossiya fuqarosi, Angliya fuqarosi kabi, bunda faqirlik semasi yoʻqolgan.

Avlod soʻzini ham misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Sababi bu soʻz ham arab tilida oʻgʻil bolaning koʻplik formasi yaʼni bolalar (oʻgʻil bolalar) semasini ifodalasa, oʻzlashish natijasida otabobodan qolgan naslga nisbatan qoʻllanila boshlangan. Misol uchun OʻTIL da bunday misol keltiriladi[5]:

Ajdodlar boʻlmaydi avlodsiz,
Avlodlar koʻrkidir, ajdodlar.

Misol tariqasida ustoz soʻzini ham keltiradigan boʻlsak, bu soʻz oʻzbek tiliga arab tilidan oʻzlashgan arabiy soʻz hisoblanadi, aslida bu soʻz arabiy oʻzlashma emas, yaʼni **أستاذ=ustoz** “أستاذ” soʻzining etimologiyasi fors tiliga borib taqaladi. Bu soʻz aslida “ustod” boʻlib, fors tilida “ustoz, mahoratli oʻqituvchi yoki hunarmand” maʼnosini bildiradi.

Soʻzning rivojlanishi:

1. Ushbu soʻz islom davri boshida arab tiliga fors tili orqali kirib kelgan.
2. Soʻz arab tilida “ustoz” shaklida talaffuz va yozuvga moslashtirilgan.
3. Arab tilida bu soʻz oʻqituvchi, universitet professori yoki oʻz sohasida mutaxassis boʻlgan odam maʼnosida qoʻllanila boshlagan.

Hozirgi zamonda ishlatilishi:

- Soʻz hozirda quyidagi kontekstlarda ishlatiladi:
- Oliy oʻquv yurtlari oʻqituvchisi (Professor).
- Maktab oʻqituvchisi (Ustoz).
- Sanʼat yoki adabiyot sohasida mahoratli mutaxassis (Usta).

Fors tilidagi ildizi:

• “Ustod” soʻzi fors tilida “ust” ildizidan kelib chiqqan boʻlib, bu ildiz “asos” yoki “baza” maʼnosini bildiradi[6]. Bu esa oʻqituvchi yoki mutaxassisning oʻz sohasidagi asosiy va muhim rolini taʼkidlaydi. Bu degani oʻzbek tilidagi usta va ustoz soʻzlari oʻrtasida bogʻliqlik ham bor degani. Bu soʻz arab tilidagi koʻplab boshqa forscha soʻzlar qatorida oʻzlashgan va hozirgi kunda ham keng qoʻllaniladi. Bu soʻz asl arab soʻzi emasligiga yana bir dalil shuki, asl arab tili soʻzlarida odatda “س” va “ذ” harflari bitta soʻzda jamlanmaydi[6].

Yuqoridagi misollar qatoriga koʻprik soʻzini ham qoʻshish mumkin. Köpri yoki arab tilida “كوبري” (oʻqilishi: kūbrī) soʻzi Misr va Sudan arab lahjalarida “koʻprik” maʼnosini anglatadi. Bu soʻzning tarixi turk tilidagi “köprü” soʻziga borib taqaladi va u ham “koʻprik” degan maʼnoni bildiradi. Ushbu soʻz 16-asrdan 20-asrgacha davom etgan Usmoniylar imperiyasi davrida arab tiliga kirib kelgan. Qisqacha tarixi: Usmoniylar imperiyasi Misr va boshqa arab mamlakatlarini boshqargan davrda koʻplab turkcha soʻzlar arab tiliga kirib kelgan. Ayniqsa, infratuzilma va boshqaruvga oid soʻzlar arabcha shevalarda keng qoʻllana boshlagan. “Köpri” soʻzi ham shular jumlasidan. Arab tiliga moslashuvi: Aslida, arab tilida “koʻprik” maʼnosini bildiruvchi “جسر” (jīsr) soʻzi bor edi. Lekin, Misr arab shevasida “كوبري” keng tarqalib ketgan va xalq tilida qoʻllanadigan asosiy soʻzga aylangan. Boshqa arab davlatlarida esa “جسر” koʻproq qoʻllaniladi.

Hozirgi kundagi qoʻllanilishi: Bugungi kunda “كوبري” soʻzi Misrda va Sudanda “koʻprik” deganda ishlatiladigan asosiy soʻz boʻlib, yoʻl belgilari va kunlik suhbatlarda keng qoʻllaniladi[5]. Xulosa qilib aytganda, “كوبري” soʻzi turk tilidan olingan boʻlib, u arab tilida oʻziga xos oʻrin tutadi va Misr hamda Sudan lahjalarida “koʻprik” maʼnosida keng ishlatiladi. Bu esa arab tili ham turk tillaridan soʻz oʻzlashtirganining yorqin misoli hisoblanadi.

Natijalar va Muhokama. Arabcha oʻzlashmalar oʻzbek tilining leksik boyligini shakllantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Tarixiy manbalarga koʻra, arab tili bilan til aloqalari Islom dini qabul qilinganidan soʻng yanada faollashgan va natijada yuzlab soʻzlar turli bosqichlarda oʻzbek tiliga kirib kelgan[8]. Bu soʻzlarning aksariyati diniy, ilmiy, maʼmuriy, huquqiy va madaniy kontekstlarda qoʻllanilgan boʻlib, ular semantik jihatdan sezilarli oʻzgarishlarga uchragan. Ushbu oʻzgarishlar tilning tabiiy taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy omillar, diniy taʼsirlar va madaniy muhit bilan chambarchas bogʻliq. Shuningdek, semantik oʻzgarishlar leksik birliklarning kommunikativ ehtiyojga moslashuvi natijasidir.

Tahlil davomida aniqlanishicha, arabcha oʻzlashmalarning aksariyati fonetik va morfologik jihatdan oʻzlashtirilgan boʻlsa-da, semantik jihatdan ular yangi kontekstga moslashtirilgan, koʻp hollarda esa sinonimlar tarmogʻida oʻz oʻrnini topgan[3]. Bu esa tilimizda arabcha oʻzlashmalarning faqat passiv qatlam emas, balki faol ishlatiluvchi qatlamga aylanganini koʻrsatadi.

Arab tili va adabiyotining sharq xalqlari, jumladan, oʻzbek xalqi orasida keng yoyilishining oʻzi muhim omillardan biridir. Islom mazhabi, arab tili va adabiyoti oʻsha

paytda ar arab soʻzlarining oʻzbek tiliga kirib kelishi xilma-xil boʻlganligi kabi, uning semantik tuzilishidagi oʻzgarishlar ham turlicha hisoblanadi. T.I.Rahmonov oʻzining ilmiy ishida oʻzlashma soʻz semantik tuzilishi 3 xil ekanligini aytib oʻtgan:

1. Soʻz maʼnolarining kengayishi.
 2. Soʻz maʼnolarining torayishi.
 3. Soʻz maʼnolarining koʻchishi.
- Etib koʻb xalqni majruhu maʼdum,
Qoʻlida **tasbehu** oqi hamoyil.

(Ibrat)

Ushbu baytda bir nechta arabcha soʻzlar ishtirok etgan. Masalan, majruh- bu arabcha macruh(un) shakliga ega; oʻzbek tiliga choʻziq u unlisi y unlisiga, xoyu xutti undoshini x undoshiga almashtirib qabul qilingan; Macruh-majruh, asli “jismoniy shikast yetkazdi” maʼnosini anglatuvchi caraha feʼlining I bob majhul nisbat sifatdoshi boʻlib, “jarohatlangan”, “nogiron”, “mayib” maʼnolarini anglatadi. Hozirgi zamon oʻzbek tilida ham bu soʻz xuddi mana shu semalari bilan ifodalanib kelinmoqda. Tasbeh- bu arabcha soʻz tasbih(un) shakliga ega; oʻzbek tiliga choʻziq I unlisi e unlisiga, xoyi xutti undoshi x undoshiga almashtirib qabul qilingan: tasbix- tasbeh; koʻpmaʼnoli sabaha feʼlining “maqtadi” maʼnosi bilan hosil qilingan II mastari boʻlib, asli “maqtov” maʼnosini anglatadi. Subxon ollo! Maqtov soʻzlari maxsus miqdorda ipga tizilgan munchoqlarni birma-bir ayirib aytilagni uchun bu soʻz keyinchalik “maxsus miqdorda ipga tizilgan munchoqlar” maʼnosini anglatish uchun ishlatiladigan boʻlgan[11].

Oʻzbek tilida ham tasbeh soʻzi duolar va ibodat soʻzlarini hisoblab boorish maqsadida ishlatiladigan munchoqlar shodasi hisoblanadi. Tasbeh soʻzining kelib chiqish tarixi uzoqqa borib taqaladi. “Rasululloh solallallohu alayhi vasallam bir ayolning oldiga kirdilar, u paytda ayol danak yoki mayda toshlarni sifatida ishlatib ollohu duo, zikr keltirayotgan ekan, shunda U zot “Men senga undan oson yoki Afzal narsaning xabarini beraman deb, zikrni koʻp takrorlash va uni qoʻldan boshqa narsa bilan ham sanash mumkinligini aytganlar”. Mana shu maʼnoni anglatish maqsadida mashhur muhaddis imom Abu Dovud oʻz kitobida “mayda tosh bilan tasbeh aytish” bobini yaratgan. Mana shu voqealardan keyin bizda “tasbeh” nomini olgan, arabcha “subha” deb nomlanadigan danak yoki dumaloq narsalarni ipga tizib yaratiladigan narsa paydo boʻlgan.

Boshqa bir hadis kitoblarida, tasbeh namozdan tashqari holatlarda ollohga koʻp martalab zikr aytish jarayonida ishlatilishi kerakligi haqida ham maʼlumotlar uchraydi, shunday qilib musulmon xalqi mana shunday tasbehlarni yasab foydalanganlar.

Bizdan odob usul etmang umid,

Odami qishloqidurmiz uch kishi.

(Ibrat. Hikoyati uch kishi)

Ushbu parchadagi odam soʻziga diqqat qarataylik. Odam soʻzi lugʻatimizga arabchada kirib kelgan. OʻTILda ushbu soʻzga shunday taʼrif beriladi: ar-Odamato; inson. Fikrlash, soʻzlash va mehnat qilish qobiliyatiga ega boʻlgan, shu tufayli boshqa hamma maxluqotdan ustun turuvchi jonli zot; kishi, inson. Odam leksemasini semalarga ajratamiz:

1. Kishilik jamiyatining bir vakili.
2. Tarbiya koʻrgan, yaxshi xislatlarga ega insonga el orasida “odam boʻlgan” iborasi qoʻllaniladi.
3. Oila aʼzolarining har biriga nisbatan. Masalan: Odam boshiga uch soʻmdan.

Xulosa. Ushbu tadqiqot orqali oʻzbek tilidagi arabcha oʻzlashmalar koʻp asrlik tarixiy, madaniy va diniy aloqalar natijasida shakllanganligi, ularning nafaqat fonetik va morfologik, balki semantik jihatdan ham chuqur oʻzgarishlarga uchraganligi aniqlandi. Tadqiqotda aniqlanganidek, arabcha soʻzlar oʻzbek tiliga kirib kelgach, oʻz maʼnolarini butunlay saqlab qolmagan, balki torayish, kengayish, salbiylashuv, ijobiylashuv, neytrallashuv kabi semantik oʻzgarishlarga duch kelgan. Bu

jarayon til taraqqiyotining tabiiy qonuniyatlariga asoslanadi va leksik birliklarning yangi ijtimoiy-madaniy kontekstlarga moslashuvi bilan bog'liqdir[9].

Arabcha o'zlashmalarning hozirgi o'zbek tilidagi faol qatlamga aylanishi ularning semantik rivojlanishini doimiy jarayon sifatida kўрсатади. Тадқиқот natijalari shuni ko'rsatdiki, arabcha o'zlashmalar tilimizda nafaqat tarixiy yodgorlik sifatida, balki amaldagi lingvistik vosita sifatida ham muhim o'rin egallaydi. Shu sababli, bunday leksik birliklarning o'zgarishlarini chuqur ilmiy asosda o'rganish, ularni zamonaviy til tizimida to'g'ri talqin qilish va tahlil etish bugungi tilshunoslik uchun dolzarb masaladir. Kelgusida bu yo'nalishda yanada kengroq korpusga asoslangan tadqiqotlar olib borish, ayniqsa, matn lingvistikasi va kognitiv lingvistika nuqtayi nazaridan yondashuvlar orqali arabcha o'zlashmalarning semantik evolyutsiyasini chuqurroq ochib berish mumkin. Биз уқорида семантик жиҳатдан о'згарishga yuz tutgan ayrim arabcha o'zlashmalarga to'xtaldik xolos, o'zbek tilida bunday arabcha o'zlashmalar ko'plab uchraydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, olib borilgan kichik tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, o'zlashma so'zlar o'zbek tili lug'at tarkibining ajralmas bir qismi hisoblanadi.

Tilimizda ishlatilayotgan faol so'zlarning kelib chiqishini o'rganish va tadqiq etish jarayoni o'tgan asrdan buyon tilshunos olimlarning diqqatini tortib kelmoqda. Bu mavzu yuzasidan ko'plab ilmiy ishlar yaratilgan. Shunday ekan, millatimizning ulkan va bebaho boyligi hisoblangan ona tilimizning so'z boyligini oshirishda qaysi tillar o'z ta'sirini o'tkazganligini aniqlash bugungi kundagi dolzarb masalalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурахмонов, Ф. (1995). Ўзбек тилида арабча сўзлар. Фан.
2. Абдуллаева, М. (2014). Ўзбек тилида ўзлашмаларнинг семантик ўзгариши. Фан.
3. Қаюмов, А. (1983). Луғавий сўзлар тарихи. Ўқитувчи.
4. Мирзаева, Д. (2019). Ўзбек тилидаги нейтраллашган ўзлашмалар. Фан.
5. Махмудов, Н. ва бошқалар [and others]. (2006). Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқитувчи.
6. Хидоятлов, А. (2009). Ўзбек тилидаги ўзлашма сўзларнинг шаклланиш жараёнлари. Самарқанд.
7. Лингвистический энциклопедический словарь [Linguistic Encyclopedic Dictionary]. (1990). Советская энциклопедия.
8. Versteegh, K. (2001). The Arabic language. Edinburgh University Press.
9. Kaye, A. S. (Ed.). (1987). Semitic studies in honor of Wolf Leslau. Otto Harrassowitz.
10. Ali, A.Y. (1991). Arabic loanwords in Central Asian languages. Al-Azhar University Press.
11. Rahmatullayev, Sh. (2003). O'zbek tilining etimologik lug'ati [Etymological dictionary of the Uzbek language] (2-tom) Toshkent.